

TALABALARGA MUTAXASSIS FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich

Farg‘ona davlat universiteti talabalarini turar joyi bilan ta‘minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i.

Akbarova Ma‘mura Ismoilovna

Farg‘ona davlat universiteti fizika-texnika fakulteti tyutori.

Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Pedagogik texnologiyalar aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan xar qanday pedagogik texnologiyani ta‘lim bilan bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik texnologiya ta‘limning asosiy masalasi ham aynan talabaning dars jarayonida faoliyati faolligini ta‘min etishga yo‘naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas‘uliyatni his qilishni ta‘min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat.

Pedagogik texnologiya ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalar hamda tajribalar zahirasi shakillantirishga va mustaqil vazifalarni bajarishga undaydi. O‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirish, ta‘lim va innovatsion yondashuvlar asosida axborotlarni mustaqil izlab topish, uni atroflicha tahlil eta olish, ilmiy-ijodiy tafakkurni boyitish, o‘quv-biluv jarayonidagi savol-javob va bahs-munozaralarda faol qatnashish, o‘z fikr-mulohazasini asosli dalillar bilan bayon qilish hamda uni himoya eta olish qobiliyati har bir talaba – bo‘lajak mutaxassis olida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Demak, fikr-shaxsning faoliyat jarayonidagi bilimi, tajribasi, qobiliyati va kuch-qudratini nomoyon etadigan ma‘naviy – kasbiy sifatidir. Fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo‘lmish «Avesto» da ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal ko‘rinishida o‘z ifodasini topgan.

Innovatsion yondashuvlar bugungi islohotlar talabi darajasida to‘laqonli bo‘lmasada lekin echimini to‘laqonli topa olgani yo‘q. Talabalarining pedagogik texnologiya ta‘limini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan ta‘lim printsiplari, qonuniyatlar hamda uni amalga oshiruvchi interfaol metodlar metodikasi to‘liq modernizatsiya qilinmagan. Bu borada ilgari surilgan pedagogik g‘oyalarni generatsiyalash hamda uni yaxlit tizim holiga keltirish muammosi hal etilmagan. G‘oyalarni integratsiyasi jarayonida pedagogik texnologiya ta‘lim texnologiyasining o‘rni hozircha pedagogik jihatdan alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilmagan.

Shunga ko‘ra biz tomondan olib borilayotgan tadqiqot ishining maqsadi: ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq pedagogik texnologiya ta‘lim texnologiyasi asosida talabalarining erkin ijodiy tafakkuri va shunga qaratilgan pedagogik g‘oyalar samaradorligini kafolatlovchi ta‘lim mazmunini takomillashtirishga erishish.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya ta'limni yo'lga qo'yishda nafaqat talablarni muayyan fan bo'yicha bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, ularda pedagogik texnologiya dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma'lum ma'noda global professionallik masalasi ham o'z tasdig'ini topmog'i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol haraktni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o'zining diqqatini muayyan ob'ektga qarata oladi.

Ijodiy texnologik faoliyat shunchaki oson kechadigan jarayon emas. Shaxsning sezgisi, idroki uning xotirasi hamda mantiqiy tafakkur ko'lami bilan uyg'un bog'lanib ketadi. Ijodiy faoliyatda talabdagi bilim innovatsion ko'nikma va malakalar bilan yanada takomillashib boradi. Analitik tafakkurning mahsuli o'laroq talaba:

matn mazmunidan kerakli fikr qoida va ta'riflarni keltirib chiqarmog'i;

innovatsion yondashuvlar asosida o'zining g'oyalarini ilgari surmog'i;

o'quv-biluv va ijodiy faoliyatga xos sababiy bog'lanishlarni, undagi muayyan sifat hamda xususiyatlarni belgilashini, sifatni miqdorga yoki miqdordan sifatni (kvalimetriya metodi asosida) keltirib chiqarishi, ularning oqibatlarini belgilovchi omillarni bilishi;

olingan ma'lumotlar bankiga muvofiq statistik-matematik tahlillar o'tkazish va o'zining pedagogik texnologiya fikrini ahamiyatiga ko'ra saralab, muayyan tizim holiga keltira olishi lozim.

Ushbu metodning mohiyati shuni anglatadiki, talaba har safar egallagan yangi axborotni integrativ jarayonda yaxlit, o'zaro bog'liqlik, o'zaro izchillik tomonlariga e'tiborni qaratadi. Fanlararo bog'liqlikning tafakkur rivojiga ta'sirini anglab etadi.

Yozma topshiriqlarni talaba og'zaki yoki yakka tartibda yozma javoblarda bayon etadi. Bunday interfaol metodlardan zanjir metodi asosida o'qituvchi javoblar ketma-ketligi tartibida yakuniy fikrni bildirishi mumkin. Keyingi bosqichlarda aqliy hujum, debat, 6x6x6 metodlaridan foydalanish mumkin.

Pedagogik texnologiya hattoki nazorat topshiriqlarini bajarishlarida ya'ni, «yaxshi» va «a'lo» o'zlashtirishlarida juda qulayligi bilan birgalikda samarali natijalar olishga yordam beradi. Talabadagi pedagogik texnologiya fikr dastlab mikroguruh doirasida shakllanib, so'ng jamoa hukmiga havola etiladi .

Pedagogik texnologiya ta'limning zamonaviy shakllaridan biri bo'lib talaba o'quvchilarni o'zaro o'qituvchi bilan kontaktda bo'lishga majbur qiladi. Pedagogik texnologiya ta'limning kontaktli shakli interfaol metodlar tatbiqi asosida seminar-trening, amaliyotga oid mashg'ulotlar, davra suhbatlari, muammoli mavzu yuzasidan mashg'ulotlar va anjumanlar ko'rinishida amal qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bugungi kunda oliy ta'lim tizmidagi pedagogik texnologiya ta'lim o'zining prinsiplari, qonuniyat va amalga oshirish metodlariga ega bo'libgina qolmay talabalarda kelajakda etuk mutaxassis bo'libgina qolmay balki ilmiy-ijodiy yondashuvlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Мирзиёев Ш. М.** Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн] : Маъруза / Шавкат Миромонович Мирзиёев. – Тошкент : Tasvir, 2021. – 36 бет :
2. **Мирзиёев Ш. М.** Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [Матн] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
3. O.Erkaboyev, O. G'aniyev. [Globallashuv sharoitida yoshlarning "ommaviy madaniyat" tahdidiga qarshi kurashi](#). international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25
4. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma'naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25
5. O.Erkaboyev, G.Qurbonova. [Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti kushandasi](#). PEDAGOG, 2023. 62-63
6. O.Erkaboyev, D.Tursunova. [Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish](#) . PEDAGOG, 2023. 59-61
7. Erkaboyev.O.M. [Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati](#). Ta'lim fidoyilari-2022. № 3. С. 138-141
8. O.M. Эркабоев. [Жисмоний тарбия ва Чақирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари](#). Ta'lim fidoyilari-2022. № 13. С. 4-8
9. O. Эркабоев. [Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 70-74
10. O.Erkaboyev. [O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi](#). Ta'lim fidoyilari, 2022. 73-79
11. O.M. Эркабоев. [Наука в системе высших школ Республики Узбекистан](#). Архивариус. с 24-27
12. E.O. Muhammadjonovich. [Determination of the physical status of secondary school students through sociological research](#). Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
13. EO Muxammadjonovich, ME Abdujannonovich . [YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RNI](#). TADQI QOTLAR, 2023/4/4. 40-43